

инфраструктурани такомиллаштириш ва энг асосийси, хорижий инвесторлар учун барча жараёнларни шаффоф ва ҳамёнбоп қилиб бериш мақсадга мувофиқдир. Шундагина ташқи сармоялар ҳудуд тараққиётини жадаллаштирувчи асосий омил сифатида хизмат қиласди.

EKSPORTCHI KORXONALARINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

*Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Marketing kafedrasi doktoranti, PhD*

Jahonda kuzatilayotgan nobarqaror siyosiy va iqtisodiy vaziyatda mahsulotlar eksporti hajmini oshirish orqali eksport geografiyasini kengaytirish, yangi bozorlarga kirib borish va an'anaviy bozorlarda o'z o'rnnini mustahkamlash uchun eksport qiluvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini yanada rag'batlantirish mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatining muhim ustuvorliklardan biri hisoblanadi. Eksport salohiyatini oshirish, mahalliy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar eksport gergrafiyasini kengaytirish, meva-sabzavot mahsulotlarini etishtiruvchi fermer va dehqon xo'jaliklari hamda eksport qiluvchi korxonalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Moliyaviy yordam quyidagilar bilan bog'liq xarajatlarni to'lab berish uchun ko'rsatiladi:

- 1) standartlashtirish va sertifikatlashning xalqaro tizimlarini joriy etish yo'nalishlarida;
- 2) sug'urta xizmatlaridan foydalanganda sug'urta mukofoti xarajatlarini qoplab berish yo'nalishida eksport qiluvchilar quyidagi sug'urta shartnomalariga asosan sug'urta xizmatlaridan foydalanganda kompensatsiya qilib beriladi;
- 3) xorijiy vakolatli organlarda milliy mahsulotlar va brendlarni (tovar belgilarini) ro'yxatdan o'tkazish yo'nalishida;
- 4) moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritishni joriy qilish xarajatlarini qoplab berish yo'nalishida;
- 5) savdo uylarini ochish va saqlash, ofis, savdo va ombor binolarini ijara ga olish bilan bog'liq chet eldag'i xarajatlarni qoplab berish yo'nalishlarida;
- 6) ko'rgazma-yarmarka tadbirlarida ishtirok etish yo'nalishida;
- 7) xorijiy mamlakatlarda bo'lib o'tadigan o'quv seminar, biznes-seminar, trening, savdo missiyalari va biznes-forumlarda ishtirok etish yo'nalishida;
 - a) Kompaniya va Savdo-sanoat palatasi tomonidan tashkil qilingan hollarda;
 - biznes-seminar, trening va forumlarda ishtirok etish (qatnashish to'lovi, transport xarajati – ekonom klass uchun, mehmonxona xarajati;

- savdo missiyalarini tashkil etish (transport va mehmonxona xarajatlari, xorijiy kompaniyalar, mutaxassislarining xizmat haqi, binoni ijaraga olish, texnik ta'minot, axborot-taqdimot materiallarini tayyorlash, esdalik sovg'alari olish, kofe-breyklar tashkil etish, vakillik xarajatlari, delegatsiyaga chet elda hamrohlik qilish bo'yicha xizmatlar haqi, uchrashuv, transfer, tarjimon, shu bilan birga, ushbu xizmatlarni ko'rsatishda autsorsing xizmatidan foydalanish);

b) eksport qiluvchi tashkilotlar alohida o'zi shaxsan qatnashgan holatlarda:

- qatnashish to'lovi;
- transport xarajati – ekonom klass uchun;
- mehmonxona xarajati;

8) mahalliy mahsulotlar, xizmatlar va brendlar (tovar belgilari) bo'yicha raqamli reklamani xorijiy Internet jahon tarmog'i axborot resurslarida, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, savdo maydonchalari va mobil ilovalarda joylashtirish yo'nalishida;

9) mahsulotlar namunalarini tanishtirish maqsadida xorijiy xaridorlarga, eksport qiluvchi tashkilotlarning tashqi savdo uylari va shou-rumlariga, shu jumladan, xaridor topishda ko'mak olish uchun O'zbekiston Respublikasining chet eldag'i diplomatik vakolatxonalariga yuborish yo'nalishida;

10) qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalariga xorijdan malakali dizayner, texnolog, marketolog, sifat nazoratchilari va agronomlarni jalg qilish xarajatlarini qoplab berish yo'nalishida – mehnatga haq to'lash;

11) tadbirkorlik subyektlariga nufuzli xalqaro brendlarni (tovar belgilarini) jalg qilishga, shuningdek, ularning nufuzli xalqaro brendlар egalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish xarajatlarini qoplab berish yo'nalishida;

12) mutaxassislarni o'qitish xarajatlarini qoplash berish yo'nalishida.

Moliyaviy yordam quyidagi toifadagi korxonalarga ko'rsatiladi.

birinchi toifali korxonalar – barqarorlik reytingida yuqori "AAA", "AA", "A" reytingda bo'lgan murojaat qilingan sanadan oldingi oxirgi 12 oyda:

- eksport qilingan mahsulotlar tarkibida qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi 10 foizdan yuqori bo'lgan;

- kamida 3 ta davlatga, shundan 2 tasi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi va chegaradosh davlatlardan tashqari davlatlarga eksportni amalga oshirgan korxonalar;

ikkinchi toifali korxonalar – barqarorlik reytingida "AAA", "AA", "A" reytingda bo'lgan murojaat qilingan sanadan oldingi oxirgi 12 oyda eksport faoliyati bilan shug'ullangan korxonalar;

uchinchchi toifali korxonalar – barqarorlik reytingida "BBB", "BB", "B" reytingda bo'lgan murojaat qilingan sanadan oldingi oxirgi 12 oyda eksport faoliyati bilan shug'ullangan korxonalar;

yakka tartibdagi tadbirkor – belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxslar hamda hunarmandlar.

Quyidagi rasm orqali eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatish qanday tartibda amalga oshirilishini ko'rib chiqamiz.

Bosqichlar	Mas'ul ijrochilar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Eksport qiluvchi tashkilotlar	Tegishli hujjatlarni tayyorlaydi va elektron shaklda taqdim etadi.	Ixtiyoriga ko'r'a
2-bosqich	“Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ	Arizalarni ko'rib chiqish va moliyaviy yordam ko'rsatish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilish.	Ariza qabul qilingan kundan boshlab 7 ish kuni mobaynida
3-bosqich	“Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ	Eksport qiluvchi tashkilotlarga qabul qilingan qaror to'g'risida bildirishnomalar yuboradi; moliyaviy yordam ko'rsatish belgilangan arizalar bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish tadbirlarini (tender, konkurs va boshqalar) amalga oshiradi.	Qaror qabul qilingan kundan boshlab 1 ish kuni mobaynida Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda
4-bosqich	“Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ	Moliyaviy yordam ko'rsatish bo'yicha to'lovlar amalga oshiradi: a) “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan belgilangan tartibda tuzilgan shartnomalar bo'yicha; b) amalga oshirilgan xarajatlar bo'yicha.	Shartnomada belgilangan muddatda Qaror qabul qilingan kundan boshlab 5 ish kuni mobaynida
5-bosqich	“Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ	“Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ bilan eksport qiluvchi tashkilot va tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma ijrosini monitoring qiladi.	Doimiy ravishda

1-rasm. Eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatish sxemasi²²⁶

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarga davlat tomonidan moliyaviy yordam O'zbekiston Respublikasi Hukumat Komissiyasining 2024-yil 11-maydag'i 63-sonli bayoni bilan tasdiqlangan "Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga moliyaviy yordam ko'rsatishning vaqtinchalik tartibi to'g'risidagi" nizomi asosida amalga oshirilmoqda. Olib borilgan tahlil va tadqiqotimiz natijasida mahalliy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni eksport faoliyatiga keng jalb qilish, eksportdagi risklarni kamaytirish va eksportchi korxonalarning narx strategiyasi uchun muhim bo'lgan aniq hisob-kitoblarni amalga oshirish maqsadida davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy yordamning doimiy mexanizmini ishlab chiqish va uning huquqiy asosini rasmiylashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

²²⁶ O'zbekiston Respublikasi Hukumat Komissiyasining 2024-yil 11-maydag'i 63-sonli bayoni.